

Boshlang'ich ta'limda 4k modelidan nima maqsadda foydalanish kerak ?

Ikromova Jasmina Davlat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

'Boshlang'ich ta'lim' yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda 4k modelining afzalliklari, 4k modelining tarkibiy qismlari, 4k modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari va 4k modeli o'zi nima ekanligi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: 4k model, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy ta'lim tizimi, PISA, PIRLS, kollobarativlik, kommunikativlik, kreativlik, kritik (tanqidiy) fikrlash.

Annotation: This article discusses the advantages of 4k model in elementary education, components of 4k model, pedagogical features of using 4k model and what 4k model is.

Key words: 4k model, primary education, modern education system, PISA, PIRLS, colloborative, communicativeness, creativity, ctitical thinking.

Аннотация: В этой статье рассматриваются преимущества модели 4к в начальном образовании компоненты модель 4к педагогические особенности использования модели 4к и что такое модель 4к.

Ключевые слова: 4к модель, начальное образование, современная система образования, ПИЗА, ПИРЛС, сотрудничество, коммуникабельность, креативность, критическое мышление.

KIRISH:

Takror va takror aytaman: Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni- bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi.

SHavkat Miromonovich Mirziyoyev

Yangi o`quv yilidan boshlab boshlang`ich ta`lim o`quvchilariga yangi avlod darsliklari asosida ta`lim berila boshlandi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri- 4k tamoyili asosida ishlab chiqilganligi hisoblanadi. Ya`ni bu tamoyilda ma`lumotlarni yodlatish, shunchaki o`qish va yozishni o`rgatish bilan cheklanilmaydi.

“4K” model nima degani?

“4K” yondashuvi o`z nomi bilan aytganda 4ta tamoyilni o`z ichiga oladi. Har bir tamoyil orqali o`quvchilar turli xil rivojlanishga erishishadi. “4K” modeli zamonaviy ta`lim tizimi bo`lib, 4k modelidan foydalanish o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlashga, mustaqil fikrlashga, yangicha yondashuvga va tanqidiy fikrlashga o`rgatadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o`rinlarni egallagan davlatlar ta`limida o`quvchilarda “4K” ni o`z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko`nikmalarga alohida urg`u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. Bular bizda ham tobora rivojlanib bormoqda.” 4K” model 4ta tamoyilni o`z ichiga oladi.

Bular:

Kollabaratsiya

Kommunikativlik

Kreativ fikrlash

Kritik(tanqidiy) fikrlash

1.Kollabaratsiya:

Jamoda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu o`quvchilarda topshiriq payti hamkorlik qilish, o`zaro jamoadoshlarini qo`llab- quvvatlash hamda o`zaro fikr almashish ko`nikmalarini o`rganishga ko`maklashadi. Kollabaratsiya orqali o`zlashtirishda orqada qolayotgan o`quvchilar jamoada erkin bo`la olishadi, o`qituvchilaridan so`ray olmaganlarini jamoadoshlaridan so`rashlari mumkin bo`ladi, bir- birlari bilan fikr almashib bilmagan ma`lumotlarini bilib olishadi, shuningdek o`quvchilar o`rtasida hamjihatlikni oshirishga erishiladi.

2. Kommunikativlik:

Muloqot qilish qobiliyati. O`quvchilar fikrlarini mustaqil, aniq, ravshan

ifodalashga, suhbatdoshini tinglashga va tushunishga ma'lumotlarni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadi. Kommunikativlik orqali o'quvchi o'z fikrini tengdoshlari va boshqalarga to'g'ri va aniq yetkazib berish qobiliyati, suhbatni to'g'ri qura olish hamda mustaqil fikrlash qobiliyati oshadi.

3. Kreativ fikrlash:

O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Kreativlik orqali insonlar doimiy yangiliklar qilishadi, bu borada o'z ustilarida izlanishda bo'lishadi, kreativ fikrlash ya'ni ijodiy fikrlash yordamida insonlar boshqalardan ajralib turadi, muammoni yechishda yangi yondashuvlardan foydalana olishadi.

4. Kritik (tanqidiy) fikrlash:

O'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtai nazardan yondashishni o'rganadi, hamda mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradi.

i

-
- ⁱⁱ 1. <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>
2. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/boshlangich-sinf-darsliklarida-4k-modeliga-asoslangan-innovasion-yondashuv-taqdim-etildi>

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGI

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish.

2. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha

sharoitlar yaratish.

3. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish.

4. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish.

5. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish.

6. Masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta'lim muassasasida o'qishni tamomlaganlaridan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish.

7. Milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish shular jumlasidan.

3. PF-5847-coH 08.10.2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

<https://lex.uz/docs/-4545884#-4547696>

MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'limda "4K" modelidan nima maqsadda foydalanish kerak?

1. O'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish
2. Zamon bilan hamnafas bo'lish

3. Yangicha yondashuv
4. Jamoa bo`lib ishlash
5. Tanqidiy fikrlash
6. O`qish samaradorligini oshirish
7. Mustaqil fikrlash
8. Kitoblarni elektron o`qish va tinglash
9. Zamonaviy elektron doska va boshqa jihozlarni boshqara olish
10. Erkin muloqot qila olish kabi maqsadlarda “4k” dan foydalanish kerak.

O`rgangan bilimlarini amaliyotda qo`llay olish: bu juda muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Avvallari maktablarda o`quv qurollarining yetishmovchiligi va ba`zi fanlardan amaliyot jihozlarining yo`qligi sababli o`quvchilarda fanga nisbatan qiziqishlarining so`nishi, o`qish samaradorligining pasayishi hamda o`rganganlarini amaliyotda qo`llay olmaslik vujudga keldi. Bugungi kunga kelib, “4k” modeli yordamida o`rgangan bilimlarini amaliyotda bajarish ko`nikmalari shakllanib bormoqda. Bundan tashqari zamonaviy elektron doska va boshqa jihozlarni boshqara olishmoqda. Bu borada o`qituvchilar ham yangi zamonaviy jihozlarni boshqarishni o`rganishmoqda. Bo`lajak o`qituvchilarga “4k” tamoyili nima ekanligi va buni darsga qanday qo`llay olish kerakligi o`rgatib borilmoqda. O`quvchilar juda ham xursand bo`lib, fanlarga qiziqishlari tobora ortib bormoqda. Hozirda o`quvchilarning ma`lumotni tushunishdan ko`ra uni qanday qilib hayotda ya`ni amaliyotda qo`llay olishi muhim hisoblanadi. Masalan: fizika fanadan “ tok” mavzusini o`tganda o`quvchi balki mavzuga yaxshi javob berar lekin, hayotda shuni tushunib, qaysi sim nima vazifani bajarishini bilmasa buni darsda yaxshi javob berishidan foyda yo`q uni amaliyotda bajara olgan taqdirdagina o`quvchi mavzuga tushunganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shuning uchun ham 4k modeli samarali baholanib, o`quvchilarda amaliy bilimlar hosil qilmoqda.

Zamon bilan hamnafas bo`lish: XXI asr texnologiyalar asri bo`lganligi sababli bugungi kunda zamon bilan hamnafas bo`lish uchun ham “4k” ga ehtiyoj

sezilmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy kasblardan masalan: IT kasbi vujudga keldi. Bu kasb allaqachon kirib kelgan bo'lsada yaqin paytlardan boshlab ommalashib ketganligi sababli bugungi kunda mehnat bozorida bu kasbga nisbatan kadrlar yetishmovchiligi yuzaga kelmoqda. Mana endi boshlang'ich sinflardan boshlab Informatika fani o'qitila boshlandi. Bundan maqsad: chuqurroq o'rganish va yaxshi kadrlar tayyorlash hisoblanadi. Hozirda darslarda elektron doskadan foydalanish, kitoblarda QR kodining bo'lishi bu yordamida skaner qilish orqali eshitish yoki o'qishga talablar tobora ortib bormoqda. Bu "4k" ga ehtiyoj yuqoriligidan dalolat bermoqda.

O'qish samaradorligini oshishi: "4k" modeli o'qish samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Chet davlatlarda rivojlangan PISA kabi testlar bugungi kunga kelib bizda ham rivojlanib, bu testlar maktablarda ham olinmoqda. "4K" o'qish samaradorligini oshishiga sabab bo'lib bormoqda.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining 4k modeliga nazariy va amaliy tayyorgarliklari juda ham muhim hisoblanadi. Bugungi kunda "4k" tamoyilini rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. "4K" ni o'rgatish boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Shuni unutmaslik kerakki, "4K" 4ta tamoyilni o'z ichiga oladi. Bular: jamoa bo'lish, erkin muloqot qila olish, kreativ fikrlash va tanqidiy fikrlash kabilarning birgaligida "4k" hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>
2. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/boshlang'ich-sinf-darsliklarida-4k-modeliga-asoslangan-innovation-yondashuv-taqdim-etildi>
3. PF-5847-coH 08.10.2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <https://lex.uz/docs/-4545884#-4547696>.